



## **COVID-19 GA BOG'LIQ KRANIAL POLINEVROPATIYALARING UCHRASHI VA O'ZIGA XOS KECHISH XUSUSIYATLARI**

**<sup>1</sup>K.S.Mirzayeva**

**<sup>2</sup>Y.A.Musayeva**

**<sup>3</sup>D.S. Ashurova**

**<sup>4</sup>R.I.Yunusov**

**<sup>5</sup>S.H.Sayitov**

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi. Toshkent.  
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8033050>

### **ARTICLE INFO**

Received: 04<sup>th</sup> June 2023

Accepted: 12<sup>th</sup> June 2023

Online: 13<sup>th</sup> June 2023

### **KEY WORDS**

*Covid-19, polinevropatiya, kranial nervlar.*

### **ABSTRACT**

*Bugungi kunda Covid-19 ga chalingan bemorlarning 45% nevralogik kasalliklarga duch kelmoqda. Umumiy nevralogik asoratlар nevrasteniya ko'rinishidan to jiddiy nevralogik asoratlар ya'ni bosh miya ishemiysi, ensefalomiyelit, ensefalopatiyalar, polinevropatiya (periferik asab tizimining shikastlanishi) kabilarni o'z ichiga oladi. Shu kasalliklar qatorida kranial nervlarning ham ko'plab zararlanishi kovid infeksiyasi o'tkazgan bemorlarda turli muddat oralig'ida kuzatilgani haqida ayrim xorijiy ma'lumotlar nashr etildi. Lekin bu ma'lumotlar amaliy, nazariy, statistik ma'lumotlar yig'ish uchun yetarli emas. Shuning uchun ham bu muommoni o'rganishni chuqurlashtirish va ommalashtirish ehtiyoji tug'ildi.*

### **Dolzarbligi:**

Covid-19 o'tkazgan bemorlarda periferik nerv sistemasining zararlanishi bo'yicha o'rganilgan materiallarning ko'pligiga qaramay, kasallik kechishining yangi variantlari mavjudligi, nerv sistemasini zararlanishining rivojlanish mexanizmlarini o'rganish va davolashning maqbul yo'nalishlarini izlash borasidagi muommolar haligacha to'la yechim topgani yo'q. Xususan Covid-19 da asab tizimi zararlanishining o'ziga xosligi, virusning asab to'qimalariga kirish mexanizmlari, uning zararlanishining patagenezlari haqida bir qator savollar ochiq qolmoqda. Covid-19 dan keying nevralogik asoratlari bo'lgan bemorlarni davolashning optimal terapevtik davolash taktikasi masalalari ham o'rganishni talab etmoqda[1]. Covid-19 bilan shifoxonaga yotqizilgan 2750 ta (Madrid, Ispaniya) bemor kuzatilganda 71 ta(2,6%) bemorda nevralogik kasalliklar ( ayrim hollarda ularning kombinatsiyasi ) borligi aniqlandi[2]. Eng ko'p uchraydigan nevralogik kasalliklar: periferik nerv sistemasining zararlanish holatlari(33,7%), serebrovaskulyar buzilishlar (27,3%), epilepsiya (7,8%) va boshqa kam uchraydigan kasalliklar(11,3%), xususan mioklonik tremor, ko'ndalang miyelit, Gorner sindromi. Kasallikning o'tkir bosqichidan keyin periferik nerv sistemasini zararlanishing tez -tez uchrashi kuzatildi[3]. Maqsad. Covid-19 o'tkazgan bemorlarda kranial nervlarning(bir yoki ko'plab) zararlanishi uchragan holatlarni kuzatish va



tahlil qilish, ularga differensial yondoshish orqali kasallik belgilarini regress jarayonini yengillashtirish va asoratlarini oldini olish

**Tadqiqot materiallari va usullari.** Tadqiqot Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Nevralogiya va Lor bo'limlarida o'tkazildi. Covid-19 dan keyingi kranial polinevropatiyalar bo'yicha 18-60 yosh chegarasidagi jami 30(100%) ta bemorda tadqiqot o'tkazildi. Shulardan 22 tasi ayol(73%),8 tasi erkak(27%). Bemorlar 2 guruhg'a ajratildi: 1-guruh 18 ta (60%) bemor kavernoz sinoz tromboz va Coviddan keyingi ikki tomonlama interstitsial polisegmentar pnevmoniya bilan kasallanganlar. 2 guruh 12 ta (40%) bemor Coviddan keyingi ikki tomonlama interstitsial polisegmentar pnevmoniya hamda qandli diabet II tip bilan kasallangan. O'rganilgan bemorlarda bosh miya nervlari zararlanishing uchrash chastotasi, shuningdek umumiy qon, qon immunologik tekshiruvlaridan d-dimer hamda qon biokimiyoviy tahlillaridan fibrinogen tahlillari olindi va bemorlarda klinik-nevralogik tekshiruvlarni o'tkazish bilan kasallikning o'ziga xos kechishi va diagnostik xususiyatlari aniqlandi.

### **Tadqiqot natijalari:**

Tadqiqot o'tkazilgan bemorlarda bosh miya nervlarning quyidagi o'zgarishlari aniqlandi:

30 ta bemordan 7 tasida(23,3%) II juft BMN zararlanishi:ko'ruv nervining atrofiyasi-amavroz, 15 tasida (50%) III, IV, VI juft BMN larning zararlanishi-oftalmoplegiya, ptoz, ekzoftalm , 6 tasida (20%) V juft BMN zararlanishi - uch shoxli nerv nevropatiyasi, 2 ta bemorda(6,67%) VII juft BMN zararlanishi :ikki tomonlama yuz nervi falajligi aniqlandi.

#### D-dimer tahlili:

- o'rganilgan bemorlarning 8 tasida(26.7%) 250ng/ml va undan past; 20 tasida(66,7%) 250ng/ml< va <500ng/ml oralig'ida; 2 ta bemorda(6,67%) 500ng/ml< oshganligi aniqlandi.

#### Fibrinogen tahlili:

-o'rganilgan bemorlarning 17 tasida(56.6%) 400mg/ml< va <600mg/ml oralig'ida;

1 tasida(3,33%) 600mg/ml< va <800mg/ml oralig'ida; 2 ta bemorda(6,67%) 800mg/ml dan oshganligi kuzatildi.

Leykotsitlar tahlili: 15 ta bemorda (50%) leykotsitoz ; 2 ta bemorda (6,67%) leykotsitopeniya aniqlandi.

Limfotsitlar tahlili: 27 ta bemorda (90%) limfotsitoz aniqlandi.

Trombotsitlar tahlili: 18 ta bemorda (60%) tombotsitoz aniqlandi.

Trombokrit tahlili: 20 ta bemorda(66,67%) 0,282%< aniqlandi.

Bemorlar obektiv tekshiruvdan o'tkazilganda quyidagi o'zgarishlar aniqlandi:

14 ta bemorda (46,6%) tashqi tarafdan qaralganda chap tomonlama II, III, IV,V,VII bosh miya nervlari parezi bor, chap ko'zda yuqori va pastki qovoqda shish, xemoz,ekzoftalm kuzatiladi.

9 ta bemord (30%) o'ng ko'z olmasi kattalashgan, harakat qisman saqlangan,yuqori va pastki qovoqlar shishgan, yorug'likka reaksiyasi yo'q,chap ko'zda ko'rish saqlangan og'riq bor. O'ng tomon yuzda teri turgorligi pasaygan, shishgan,o'ng tomonlama yuzda gipesteziya, palpatsiyada og'riqli.



7 ta bemorda(23,3%) o'ng ko'z sohasi o'zgarishsiz, chap ko'z olmasi kattalashgan,yuqori va pastki qovoqda, ko'z atrofida yumshoq konsestensiyali shish, chap yonoq sohasida qattiq konsestensiyali tromb aniqlanadi

### Xulosa.

Covid-19ga bog'liq kranial polinevropatiyalarning o'ziga xos kechishi o'rganilganda eng ko'p bosh miya nervlarning zararlanishi III, IV, VI juft BMN lariga (50%) to'g'ri keladi, shuningdek bemorlarning leykotsit, limfotsit, trombotsit, trombokrit, d-dimer va fibrinogen miqdori oshganligi aniqlandi. Shuningdek o'rganilgan tahlillarning oshishi bemorlarda kasallikning klinik manzarasi va o'choqli nevralogik belgilarining sekin tiklanishi bilan xarakterlanadi.

### References:

1. <https://www.rmj.ru/articles/neurologiya/porazhenie-perifericheskoy-nervnoy-sistemy-pri-koronavirusnoy-infektsii-covid-19/>
2. Portela-Sánchez S., Sánchez-Soblechero A., Otalora P. et al. Neurological complications of COVID-19 in hospitalized patients: The registry of a neurology department in the first wave of the pandemic. Eur J Neurol. 2021, Jan 21. DOI: 10.1111/ene.14748. Online ahead of print.
3. Nersesjan V., Moshgan A., Lebech A.M. et al. Central and peripheral nervous system complications of COVID-19: a prospective tertiary center cohort with 3-month follow-up. J Neurol. 2021 Jan 13;1-19. DOI: 10.1007/s00415-020-10380-x. Online ahead of print.
4. Мусаева Ю.А., Абдулазизова У.С., Мусаев С.М., Омонова З.Б. Клинико - диагностическая характеристика ишемического инсульта в сочетании с инфарктом миокарда. Journal of Neurology and Neurosurgery Research 2021 №1, Бухара
5. Мусаева Ю.А. Роль гомоцистеина при прогнозировании риска развития ишемического инсульта кардиальной патологии. Узбекистон врачлар ассоциацияси бюллетени, 2021